

1. Рыскулов Т.Р. Революция и коренное население Туркестана (Сборник главнейших статей, докладов, речей и тезисов). Ч. I. 1917–1918. — Ташкент: Узбекское государственное издательство, 1925. — 245 с.
2. Сафаров Г. Колониальная революция. Опыт Туркестана. — М.: Государственное издательство, 1921. — 198 с.
3. Яковенко Л.И. Продовольственная политика Коммунистической партии и ее осуществление в Туркестане (1918–1924 гг.). — Душанбе: Ирфон, 1974. — 277 с.
4. Котыкова Т.В. Гражданская война в разрезе региональной истории: голод в Туркестане 1918–1920-х гг. // Материалы научных конференций. — 2015. — С. 189–215.
5. Буттино М. Экономический кризис и депопуляция в Туркестане, 1917–1920 гг. // Central Asian Survey. Vol. 9. No. 4. 1990. — С. 105–182.
6. Тилеукулов С. Туркестан на историческом повороте 1917–1920 гг. // Тилеукулов С., Голованов А.А., Оразымбетов Ш., Касанбаев С. Туркестан в начале XX в.: к истории истоков национальной независимости. — Ташкент, 2000. — С. 112–225.

QO‘QON XONLIGIDA METALLGA ISHLOV BERISH BILAN BOG‘LIQ HUNARMANDCHILIK SOHALARI

I SHO‘BA: Qo‘qon sivilizatsiyasining tarixiy rivoji, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatlari

Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich
University of Business and Science
Ijtimoiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya

Qo‘qon xonligida O‘rta Osiyoda azaldan rivojlanib kelgan hunarmandchilik tarmoqlari shaharlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhima ahamiyatga ega bo‘lgan. Ushbu maqolada metallga ishlov berish bilan bog‘liq hunarmandchilikning muhim tarmoqlari rivoji va xonlikdagi ishlab chiqarishda tutgan o‘rni tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, shaharlar, hunarmandchilik, temirchilik, misgarlik, metallga ishlov berish, pichoqsozlik

Аннотация

В Кокандском ханстве ремесленные отрасли, издавна развивавшиеся в Средней Азии, занимали важное место в социально-экономической жизни городов. В данной статье анализируются развитие основных отраслей ремесленничества, связанных с обработкой металла, а также их роль в производственной системе ханства.

Ключевые слова: Кокандское ханство, города, ремесленничество, кузнечное дело, медничество, обработка металла, ножевое ремесло.

Abstract

In the Kokand Khanate, handicraft industries that had long developed in Central Asia played an important role in the socio-economic life of cities. This article analyzes the development of the main branches of metalworking crafts and their role in the production system of the khanate.

Keywords: Kokand Khanate, cities, handicrafts, blacksmithing, coppersmithing, metalworking, knifemaking.

Qo‘qon xonligi shaharlari iqtisodiy hayotda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu yerdan azaldan hunarmandchilikning turli sohalari rivojlanib kelgan edi. Garchi davlat nazorati, soliqlar va majburiyatlar to‘sqinlik qilgan bo‘lsa-da, hunarmandchilik rivojlanishda davom etdi. Shaharlarda eng taraqqiy etgan hunarmandchilik sohalaridan biri – turli metallarga ishlov berish va ulardan har xil buyumlar ishlab chiqarish edi. Metallning turli xillari – temir, mis, bronza, cho‘yan, kumush, oltin kabilardan turli-tuman uy-ro‘zg‘or buyumlari, mehnat qurollari, binolar qurilishida ishlatiladigan turli temir moslamalar, zebi-ziynat buyumlari va hokazo ishlab chiqarilgan.

Temirchilik hunari avloddan-avlodga o‘tib kelardi. Bu soha juda sodda ishlab chiqarish usuliga ega bo‘lsa-da, xalq xo‘jaligida juda katta ahamiyat kasb etardi. Temirchilarning birinchi guruhi – eshik zanjirlari, xalqalar, taqalar (ot va eshaklar uchun), nag‘allar (etik va kavushlar uchun), har xil mixlar, uzangilar, temir randalar (duradgorlar uchun) va boshqa buyumlar tayyorlaganlar. Temirchilarning ikkinchi guruhi – dehqonlar va binokorlar uchun asboblari, ketmon, o‘roq, bolta, tesha ishlab chiqarganlar. Uchinchi guruh temirchilar – asosan uy-ro‘zg‘or buyumlarini yasaganlar [5,23].

Farg‘ona vodiysi shaharlaridan Namanganda temirchilar ko‘p bo‘lib, ular ishlab chiqaradigan mahsulotlari turiga qarab xilma-xil mutaxassisliklarga bo‘linar edi. Mahalliy temirchilar orasida pichoqsoz ustalar mashhur bo‘lib, ular yasagan mahsulotlarga talab katta edi [4,18]. Pichoqsozlik sohasida Chust shahri ham alohida ajralib turardi. Chustdagi pichoqsozlik hunarmandchiligini ba’zi tadqiqotchilar fikricha, Axsikent inqirozga uchragach, u yerdagi metall ustalarining Chust hududiga kelib joylashishlari bilan bog‘liq edi [3,26]. Tadqiqotchi Z.Nosirovaning yozishicha, Farg‘ona vodiysida Andijon, Qorasuv, Marg‘ilon, Qo‘qon kabi yetakchi pichoqchilik markazlari bo‘lgan. Andijon maktabiga tegishli “tol bargi”, “qaychi pichoq”, “to‘g‘ri pichoq”, “avrador pichoq” (pichoqni yarmi oq, yarmi to‘q rangda) kabi pichoqlar xuddi xanjarga o‘xshash uzun bo‘lib, ba’zilar toshlar bilan bezatilgan. [1,20].

Zargarlik qadimdan O‘rta Osiyo xalqlari orasida qadrlil kasblardan hisoblangan. Farg‘ona vodiysida ham bu soha o‘ziga xos tarzda taraqqiy etgan bo‘lib, O‘rta Osiyo xalqlari an‘analariga mos ravishda zargarlik ustaxonalari yirik shaharlarning markazlarida joylashgan. Zargarlik buyumlari tayyorlash borasida poytaxt Qo‘qon yaqqol ajralib turgan va O‘rta Osiyoda faqatgina Buxoro u bilan raqobat qila olgan.

An‘anaviy zargarlik san‘atida Qo‘qon, Andijon, Marg‘ilon zargarlik buyumlarining shakli, xomashyosi, naqsh va ishlash uslubi o‘ziga xos bo‘lgan. Zargar ustalar uzuk, sirg‘a, bilakuzuk va kundalik hayotda taqish uchun sodda zebziynatlar yasashgan. Shuningdek, bosh, peshona, chakka, chakka, soch, bo‘yinlarga taqiladigan zargarlik buyumlari ham bo‘lgan [5,26].

Qo‘qonda cho‘yandan omoch va qozonlar quyish (degrezlik) ham rivojlangan edi. Marg‘ilonda ham degrezlik ustaxonasi bo‘lgan. Vodiy shaharlarida, shuningdek, misdan, xususan, qizil misdan turli-tuman uy-ro‘zg‘or buyumlarini yasaganlar. Vodiy shaharlarida misgarlik hunarmandchiligi ham rivojlangan edi. Qo‘qonning naqshlangan mis buyumlarini Sharq mamlakatlarida, Rossiya yerlarida, Samarqand, Buxoro va Toshkent bozorlarida ham uchratish mumkin edi.

Badiiy zarb san‘ati bilan yasalgan va bezatilgan choydosh, mis choynak, samovar, mis ko‘za, mis lagan, oftoba, dastsho‘y (Namangan va Andijonda chilopchin, Qo‘qonda dastsho‘y deb atalgan) va boshqa nodir buyumlari jahon bozorlarida sotilgan. Hozirda ularning noyob namunalari jahonning ko‘pgina muzeylariga ko‘rk berib turibdi [1,21].

Bu davrda Qo‘qonda 400 ga yaqin misgarlik ustaxonlari mavjud bo‘lgan va faoliyat ko‘rsatgan. Katta shaharlarda, ayniqsa, Qo‘qon, Xo‘jand, Andijon, Marg‘ilon, Namangan va Chustda misgarlik va turli idishlarga gul kesish san‘ati shuhrat topgan edi. Bu shaharlarda alohida misgarlik rastalari ham bo‘lgan. Misgarlar turli idishlarga gul yasash san‘ati tufayli hunarmandchilikda ajralib turardilar.

Misgarlar qo‘li bilan qumg‘on, tovoq, turli qozonlar, ko‘zalar, barkashlar, choyidish, obdasta, samovar, choynak, jom, shamdon, lagan, chilim, cho‘mich, paqir (chelak), la‘li, siyohdon, karnay, dastsho‘y va boshqalarni yasaganlar [5,31].

Shaharlarda harbiy ixtiloflar avj olgan davrlarda ahamiyati ayniqsa kuchli bo‘lgan boshqa hunar turlari ham mavjud edi. Bu davr tuzumiga xos o‘zaro kelishmovchiliklar, nizo, urushlar harbiy qurol-aslahalarga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqarar va ularni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan hunarmandchilik sohalarining rivojlanishini talab qilar edi.

Qo‘qon tarixiga oid ayrim tarixiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, qo‘shinni turli qurol – yarog‘ bilan ta‘minlovchi bir necha ustaxonalar mavjud edi. Ulardan biri miltiq ishlab chiqarishga ixtisoslashgan ustaxonalar bo‘lib bu ham o‘z navbatida ikki turga bo‘lingan. Birinchi turdagi ustaxonalarda pilta miltiq, ikkinchisida esa Yevropa uslubida miltiq tayyorlangan. Shuningdek, xonlikda qo‘shin artilleriya qismining to‘plarga bo‘lgan ehtiyojini qondiruvchi – to‘p ishlab chiqaruvchi ustaxonalar ham mavjud edi. Ular Qo‘qon xonlari arxivlarida «To‘bxona», «Ishxona-i to‘bxona» tarzida qayd etiladi [2,320-330]. Bu ustaxonalarda to‘p va ular uchun kerakli anjomlar ishlab chiqarish keng yo‘lga qo‘yilgan edi. Hamda shu mahsulotlar ishlab chiqishga ixtisoslashgan edi. Arxiv hujjatlariga asoslangan holda bu ustaxonalarni quyidagilarga ajratib ko‘rsatish mumkin. Bular – To‘plar uchun yadro – tayyorlovchi ustaxonalar «korxonai tiri to‘brizon»: Yadro va porox – «doru» uchun quti «sandiqli» tayyorlovchi ustaxonalar; To‘p va miltiqlar uchun shampol (miltiq trubasini tozalash uchun ishlatiladigan asbob) va banniklar (to‘plarning trubasini tozalash uchun ishlatiladigan asbob) tayyorlovchi ustaxonalar; To‘plar uchun arava tayyorlovchi ustaxonalar. Shu bilan bir qatorda xonliklar porox – «doru» ishlab chiqaruvchi ustaxonalar ham faoliyat yuritgan. Lekin bu ustaxonalar maxfiy bo‘lib, porox saqlanadigan joylar ham sir saqlangan. Xon boshliq markaziy hukumat miltiq tayyorlashga ixtisoslashgan

ustaxonalarni xazina tomonidan ta‘minlashga harakat qilgan. XIX asrning 60-70 yillariga kelib xonlikda Yevropa uslubidagi miltiq va to‘p tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi. Bu ustaxonalarning xom-ashyoga bo‘lgan ehtiyoji ham markaziy hokimiyat tomonidan amalga oshirilgan. Qo‘shin uchun qurol tayyorlovchi ustaxonalar bilan bir qatorda u yerda ishlovchi ustalarning ta‘minotiga ham xonlik xazinasi tomonidan mablag‘ ajratilgan [6,24].

Xulosa qilib aytish mumkinki, Qo‘qon xonligida metallga ishlov berish bilan bog‘liq hunarmandchilik turlari mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutgan. Temirchilik, misgarlik, zargarlik, qurolsozlik hamda boshqa metallga ishlov berish tarmoqlari nafaqat ichki ehtiyojlarni qondirgan, balki xonlikning tashiq savdo aloqalarini rivojlantirishda ham muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Hunarmandlar tomonidan tayyorlangan mehnat qurollari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, zeb-ziynat mahsulotlari va harbiy anjomlar yuqori sifati hamda nafisligi bilan ajralib turgan.

Qo‘qon xonligida metallga ishlov berish an‘analari asrlar davomida shakllangan mahalliy tajriba va Sharq hunarmandchiligi yutuqlari bilan uyg‘unlashgan holda rivojlangan. Ayniqsa, shahar markazlarida faoliyat yuritgan ustaxonalar hunarmandchilik ishlab chiqarishining markaziga aylangan va ustoz-shogird an‘analari orqali kasbiy tajriba avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Bu esa hunarmandchilikning barqaror rivojlanishiga xizmat qilgan.

Bundan tashqari, metallga ishlov berish bilan bog‘liq sohalar Qo‘qon xonligining madaniy hayoti va moddiy merosida ham muhim iz qoldirgan. Bugungi kunda ushbu hunarmandchilik namunalari xalq amaliy san‘atining noyob namunasi sifatida tarixiy va madaniy ahamiyat kasb etadi. Shu bois, Qo‘qon xonligidagi metallga ishlov berish bilan bog‘liq hunarmandchilik tarixini o‘rganish nafaqat iqtisodiy tarixni yoritishda, balki milliy hunarmandchilik an‘analari va madaniy merosni asrab-avaylashda ham muhim ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Носирова З. Фарғона водийси бадийи ҳунармандчилиги // *Moziydan sado*, №2, 2014.
2. Троицкая А.Л. Католог архива кокандских ханов. – Москва: Наука, 1968. – 582 с.
3. Файзуллаева М., Исомитдинов Д. Позднефеодальный город Чуст в конце XIX- начале XX вв. – Худжанд: Меъроҳ, 2013. – 194 с.
4. Қосимов Й. Наманган тарихидан лавҳалар. – Тошкент, 1990. – 55 б.